

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va
O'rta maxsus ta'lim vazirligi
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

Falsafa kafedrası

FALSAFA

**fanidan mustaqil ta'lim va
zamonaviy pedagogik texnologiyalar**

(Uslubiy qo'llanma)

Samarqand-2010

Falsafa fanidan mustaqil ta'lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Uslubiy qo'llanma. – SamDChTI nashri, 2010 – 28 bet.

SamDChTI ilmiy kengashining _____sonili bayonnomasiga ko'ra nashrga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi: Falsafa fanlari nomzodi,
katta o'qituvchi **D. Amridinova**

Mas'ul miharrir: dotsent **A.R Ismoilov**

Taqrizchilar: Dots **O. Muminova**
Prof. **Sh Qo'shoqov**

Ushbu uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlarida falsafa fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish, zamonaviy ped texnologiyalarni qo'llashni samaradorligini oshirishga qaratilganidir. Berilgan uslubiy tavsiyalardan amaliy mashg'ulotlarda unumli foydalanish va talabalarni o'zlashtirish darajasini yuksaltirish maqsadida foydalansa bo'ladi.

Qo'llanma falsafa fanidan dars beradigan professor – o'qituvchilar va talabalarga mo'ljallangan.

SO'Z BOSHI

Milliy dasturning asosiy maqsadi komil inson shaxsini shakllantirish ekan, shaxsning kamol topib borishidagi eng asosiy omil ma'naviy-ruhiy salohiyatini shakllantirish etib belgilandi. «Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay va mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi» deydi yurtboshimiz I.A. Karimov.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda falsafa fani bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondoshadigan, muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qiladigan intellektual salohiyatga ega mutaxasislarni tayorlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Falsafa fanidan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishga imkoniyat yaratilgan va mustaqil ta'lim shaklida namoyon bo'ladi.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalar ijodiy ravishda o'zlashtirgan mavzularni va topshiriqlarni bajarib, fan bo'yicha o'z bilimlarini oshirishga erishadilar. Shu boisdan ularga mustaqil ta'limni turli shakllardan foydalanish: adabiyotlar bilan ishlash, referatlar yozish va interfaol uslublardan foydalanish ko'nikmalari hosil qilinadi.

Mustaqil ta'lim samaradorligi natijasida talabalarning falsafa faniga nisbatan qiziqishlari, o'zlashtirish darajasi oshib, ularning dunyoqarashi chuqurlashadi. Intellektual saloniyati oshadi va falsafiy fikrlash doirasi kengayadi.

MAVZU: FALSAFIY DUNYOQARASH (4 SOAT)

Tayanch iboralar: Tarixiy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot va falsafiy tafakkurning aloqadorligi. Insoniyat falsafiy dunyoqarashning o'zgarish dialektikasi, uning tarixiy va ijtimoiy jarayonlarga bog'liqligi. Falsafiy tafakkurning ijtimoiy jarayonlardan oldin ketishi yoki orqada qolishi muammolari.

Istiqlol-falsafiy tafakkur o'zgarishining asosi va shart-sharoiti. Ma'rifat bo'shliq va uni yangi ma'rifat bilan to'ldirishning falsafiy vazifalari. Mustaqillikni mustahkamlash, yangi tafakkurni shakllantirishda falsafaning o'rni va ahamiyati.

Falsafiy dunyoqarash o'zgarishida ta'lim-tarbiyaning ahamiyati. Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy fanlarni o'qitish talabalarning o'zgarishi. Falsafiy dunyoqarash o'zgarishi va yoshlar kamoloti. Yoshlar ongida yangicha dunyoqarashni shakllantirish vazifalari.

Mustaqili ta'lim shakli: Munozara

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. *“Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”*. -T.: Ma'naviyat, 2008

2. Akad. S. Shermuxamedov. *«Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot»* - T. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007

3. Axmedova M. *“Falsafa” o'quv qo'llanmasi*. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006

MAVZU: QADIMGI SHARQ (ZARDUSHTIYLIK) FALSAFASI (2 SOAT)

Tayanch iboralar: Sharq-jaxon sivilizasiyasining markazlaridan biri. Qdimgi Sharq, Misr va Bobildagi falsafiy fikrlar. zardushtiylik dini va falsafiy ta'limoti, unig turon falsafasi rivojlanishidagi ahamiyati. «Avesto» va zardushtiylik g'oyalari. Avesto kitobidagi koinot, yer, osmon, okean, nyrli doira va jannat haqidagi qarashlar. Avesto-mamlakatimiz sivilizasiyasi va xalqimiz ijtimoiy fikri tarixining kadimgi namunasi. Makedoniyalik Iskandar istilosi.

Mustaqili ta'lim shakli: Referat

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Falsafa tarixi. –T.: Sharq, 2002. 1,2,3 bo'limlar
2. Axmedova M. “Falsafa” o'quv qo'llanmasi. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006

MAVZU: QADIMGI YUNON FALSAFASI (2 SOAT)

Tayanch iboralar: Antik dunyo falsafasi. Antik dunyo va Yunoniston falsafasining klassik davri. Milet va Eley maktablari. Geraklit, Pifagor va pifagorchilar. Sofistlar falsafasi. Suqrot va Aflotun falsafasi. Aflotunning g'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi haqidagi ta'limot.

Antik dunyoda falsafiy fikrlarni o'rganishdagi zarurat, uning jahon madaniyati va fani uchun ahamiyati.

Mustaqili ta'lim shakli: T-sxema

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: O'zbekiston, 1998
2. Falsafa asoslari. -T.: Fan, 2005 O'quv qo'llanma. (Hammualliflar jamoasi)
3. Falsafa tarixi. -T.: Sharq, 2002.

MAVZU: ISLOM DINI VA FALSAFASI (2 SOAT)

Tayanch iboralar: Markaziy Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilikka qarshi kurash-ozodlik va mustaqillik g'oyasi timsoli. Ilk o'rta asrlarda Vatanimizning jahondagi yirik madaniyat markazlaridan biriga aylanishi. Sivilizasiyamizning Sharq xalqlari madaniyatiga aks ta'siri.

Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy buyuk xadissunos olimlar. «Al jome' as-saxix» asari, Imom ul-A'zam Abu Xanifa, Imom Motrudiy va Buxroniddin al-Marg'iloniy qarashlari, «Al-Xidoya» asari. Al-Xorazmiy, al-Fargoniy, Farobiy, Beruniy va Ibn Sinoning ilmiy-falsafiy qarashlari. Tasavvuf va uning tariqatlari.

Ilk o'rta asrlardagi vatanimiz madaniyatining sharq va jahon sivilizasiyasiga ta'sirini o'rganish muammolari. «Allox qalbimizda, yuragimizda» tamoyili va ilk o'rta asrlardagi diniy fikrlarni falsafa o'rganishning hozirgi davrdagi ahamiyati.

Mustaqili ta'lim shakli:intervyu darsi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent. 2008
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: O'zbekiston, 1998
3. Karimov I.A.. “Olloh qalbimizda, yuragimizda”. -T.: O'zbekiston, 1999
- 4.O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi” qonuni. -T.: Adolat, 1998
- 5.Qur'oni Karim. -T.: Cho'lpon, 1992

MAVZU: NEMIS KLASSIK FALSAFASI (2 SOAT)

Tayanch iboralar: XVII asr Ovrupa falsafasidagi rasionalizm. XVIII asr ma'rifatchiligi: Volter, Russo, Lametri, Didro, Gelvesiy va Golbax.

I.Kant-nemis falsafasining namoyandasi. Kantning dunyoni falsafiy anglash xaqidagi ta'limoti. Kantning narsa-ozida g'oyasi, inson tafakkuri cheksiz emasligi, sof fikrni ifodalovchi sof mantiqiy

shakillar. Gegel-nemis falsafasining yirik namoyandasi. Gegeldan keyingi falsafiy oqim va g'oyaviy jarayonlar.

O'rta va yangi davr Ovrupa falsafasini o'rganishning xozirgi davridagi ahamiyati.

Mustaqili ta'lim shakli: tanqidiy fikrlash

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Falsafa tarixi. –T.: Sharq, 2002
2. Axmedova M. “Falsafa” o'quv qo'llanmasi. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006
3. G'arb falsafasi. I,II,III bo'limlar

MAVZU: TURKISTON JADIDCHILARI IJTIMOIIY FALSAFIY QARASHLARI.(4 SOAT)

Tayanch iboralar: XVII-XVIII asrlarda mamlakatning xonlik va amirliklarga bo'linib ketishi. Ulardagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va madaniy jarayonlar. Ogaxiy va Axmad Donish faoliyati.

Millatning g'oyaviy tarqoqligi va mafkuraviy zaiflik oqibati. Chorizm istilosi va falsafiy fikr taqdiri.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida falsafiy fikrlar. Jadidchilik-milliy g'oyalar uchun kurash falsafasi. Bexbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Chulpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy-jadidchilik falsafasining namoyandalari.

Mustaqili ta'lim shakli: axborotlarni yoyish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: O'zbekiston, 1998 .
- 2.Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”. -T.: Ma'naviyat,2008 .
- 3.Falsafa asoslari. -T.: Fan, 2005. O'quv qo'llanma. (Hammualliflar jamoasi)

MAVZU:XX ASR PRAGMATIZM VA EKZISTENSIALIZM FALSAFASI (4 SOAT)

Tayanch iboralar: Hayot falsafasi-hozirgi demokratik mamlakatlarda inson yashashining tamoyili sifatida. A.Bergston va Shpengler falsafiy ta'limoti. Pragmatizm falsafasi. Ch.Pirs, U.Jeyms, J.Dyuining falsafiy qarashlari. «Amerikacha yashash modeli» g'oyasi va uning amalga oshirilishi.

Ekzistensializm falsafasi. Kyerkegor-inson falsafasining asoschisi. Demokratik dunyoda ijtimoiy jarayonlarning markaziga inson muammosining qo'yilishi. Inson qadri va haq-huquqlari muammosi. Fenomenologiya falsafasi va uning nazariy manbalari.

Mustaqili ta'lim shakli: aqliy hujum

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'arb falsafasi.I,II,III bo'limlar
- 2.Falsafa tarixi. -T.: Sharq, 2002

MAVZU: INSON BORLIG'I (2 SOAT)

Tayanch iboralar: Borliq tushunchasining mohiyati va ma'nosi. Ontologiya-borliq falsafasi. Borliq, yo'qlik, mavjudlik, moddiylik va ruhiylik tushunchalari. Ularning dunyoviy, diniy va falsafiy talqinlari. Borliq haqidagi tarixiy konsepsiyalar. Yo'qlik mavjudmi, voqyelikmi yoki ideal kategoriyami? Uni moddiyunchilik tafakkuri bilan tavsiflab bo'ladimi? Yo'qlik teologiyaning kategoriyasi sifatida.

Obyektiv va subyektiv borliq tushunchalari. Borliqning anorganik, Organic va ijtimoiy shakllari. Mikroduyo, makroduyo, megadunyo va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari. Borliq va vujudga kelish. Abadiylik, azaliylik, manguqlik, o'tkinchilik, to'g'ilish va o'lim, «bu dunyo» va «u dunyo» to'g'rsidagi mushohadalar.

Makon va zamon tushunchalari, ularning cheksizligi muammosi. Makon va zamonning abadiyligi va uzluksizligi tamoyili. Ijtimoiy makon va zamon, uning taraqqiyot tamoyillari.

Borliq va uning mavjudlik usullarini falsafiy o'rganishining yoshlar ma'naviy kamolotidagi ahamiyati.

Mustaqili ta'lim shakli: Ajurli arra

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat. 2008.
- 2.Inson falsafasi. A.Choriev. T.: O'zbekiston,VI bo'lim
- 3.Komil inson haqida to'rt risola. -T.: 1997
- 4.Komilov N. Komil inson-millat kelajagi. -T.: 2001

MAVZU: TABIAT FALSAFASI (TIRIK TABIAT) (2 SOAT)

Tavanch iboralar: Tabiat tushunchasi, uning falsafiy mohiyati va mazmuni. Naturfilosofiya-tabiat falsafasi. Jonli va jonsiz tabiat. Ularning bir butunligi, uzviy aloqadorligi. Hayot, uning qadr-qimmatini muammosi. Yerdagi hayotning vujudga kelishi to'g'risida dunyoviy va diniy qarashlar, ta'limotlar va ularning asosiy g'oyalari.

Tabiat va jamiyat, tabiiy va sun'iy muxit, ularning o'zaro aloqasi. Tabiat-jamiyatning tabiatga ta'siri. Inson faoliyati planetalar xodisa sifatida.

Tabiatning umumbashariy taraqqiyoti doirasida yerdagi hayot va biososial evolyusiyaning o'ziga xosligi. Biosfera va noosfera, ekosfera va ergosfera tushunchalari, ularning uzviy aloqadorligi va fikrlari.

Ekologik muammolarning vujudga kelish sabablari va ularni hal qilish muammolari. O'zbekistonda tabiatni asrab-avaylash va ekologik ong va mas'uliyat yoshlar kamolotining tarkibiy qismi.

Mustaqili ta'lim shakli: Vizual taqdimot

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.- T.: Ma'naviyat, 2008
2. Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild; -T.: Fan, 1958
3. Shermuxammedova N. Tabiatshunoslikning falsafiy masalalari. // Fanning falsafiy masalalari. -T.: 2007

MAVZU: IMIY BILISH METODLARI (2 SOAT)

Tayanch iboralar: Ilmiy bilishning mohiyati va uslublari. Metod, nazariya va metodologiya. Umumiy va maxsus ilmiy uslublari. Bilishda empirizm va rasionalizm. Amaliy va nazariy tadqiqotning uslublari va vositalari.

Haqiqat tushunchasi. Haqiqatga erishish-bilishning asosiy maqsadi. Haqiqatning turli shakllari: mutloq, nisbiy va sarob haqiqatlar. Haqiqatning aniq-ravshan (konkretligi) haqiqat mezonlari.

Hozirgi davrda bilish va haqiqat muammosi, uni o'rganish zarurati. Analiz, sintez, tarixiylik, eksperiment, modellashtirish.

Mustaqili ta'lim shakli: Savol – javob

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008
2. Falsafa asoslari. -T.: Fan, 2005 O'quv qo'llanma. (Hammualiflar jamoasi)
3. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. -T.: 2008
4. Shermuxamedova N. Bilish falsafasi. -T.: 2008

MAVZU: FALSAFIY QONUNLAR VA KATEGORIYALAR (2 SOAT)

Tayanch iboralar: Taraqqiyot jarayonida takrorlanish tamoyili, qonun va qonuniyat tushunchalari. Qonunlarning ob'ektivligi. Voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyat dialektikasi. Ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik va ziddiyat tushunchalari. Ular o'rtasidagi aloqadorlik. I.A.Karimov o'zgarishlarning ziddiyatli xarakteri, uni echish yo'llari, imkoniyatlari to'g'risida. Mustaqillik va jamiyatning tadrijiy taraqqiyoti. Olamning mavjudligi-miqdor va sifat voqeligi tarzida. Miqdor va sifat tushunchalari. O'zgarish va rivojlanish jarayonida o'z-o'zini inkor etish tamoyili. Inkor tushunchasi. Vorislik-eskisini

inkori va yangilikning shakllanishi sifatida. Yangini qurmasdan-eskisini buzmaslik tamoyili.

Mohiyat va hodisa, mazmun va shakl, sabab va oqibat, zaruriyat kategoriyasi.

Mustaqili ta'lim shakli: Manbalar bilan ishlash

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008
2. Falsafa asoslari. T.: Fan, 2005. O'quv qo'llanma. (Hammualiflar jamoasi)
3. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. -T.: 2008
4. Shermuxamedova N. Bilish falsafasi. -T.: 2008

MAVZU: O'Z-O'ZINI ANGLASH, UNING SHAKLLARI. (4 SOAT)

Tayanch iboralar: Inson ongining tabiiy-ijtimoiy jihatlari. Ong va in'ikos. In'ikosning mohiyati, asosiy shakllari. In'ikos jarayoni Hissiyot va tasavvur. Iroda va tafakkur. O'zini-o'zini anglash, tuyg'ular, onglilik va ongsizlik muammolari. Ong, til va nutq.

Ong va xotira. Gipnoz va parapsixologik hodisalar. Ong va bashorat. Axborotlar nazariyasi. Informasion portlash va axborot dunyosining globallashuvi jarayoni.

Ijtimoiy va individual ong. Psixologiya va mantiqda ijtimoiy ongning asosiy shakllari, ular orasidagi farqlar va o'zaro bog'liqlik.

Ong va ruhiyatning falsafiy talqinini o'rganishning ahamiyati.

Mustaqili ta'lim shakli: Esse

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008
2. Каримов И.А. Человек, его права и свободы - высшая ценность» Т.14 Т.: ИПТД «Узбекистан», 2006
3. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommobop lug'at. -T.: Sharq, 2000

MAVZU: IJTIMOYIY FALSAFA.(2 SOAT) JAMIYAT FALSAFASI (SOTSILOGIYA)

Tayanch iboralar: «Jamiyat» tushunchasi, uning mohiyati, mavjudligi va taraqqiyoti qonunlari. Jamiyat mavjudligining moddiy va ma'naviy omillari. Jamiyat taraqqiyoti haqida turli xil nazariyalari. Jamiyat rivojida tadrijiylik va vorislik. Jamiyat tarixi va taraqqiyotiga sinfiy qarash hamda ijtimoiy ziddiyatlarni mutlaqlashtirishning zarari.

Jamiyat hayotida barqarorlik va beqarorlik. Barqaror rivojlanish – tinchlik va tadrijiy taraqqiyot garovi.

Jahonning milliy davlatchilik taraqqiyoti. Taraqqiyotda o'ziga xoslik va moslik tamoyili. O'zbekistonning milliy istiqloli.

Taraqqiyotning o'zbek modeli-jamiyat rivojlanishining tadrijiy rivojlanish konsepsiyasi. Uning asosiy tamoyillari, milliy va planetar axamiyati. Iqtisod va ma'naviyat. Iqtisodiy rivojlanishning ma'naviy taraqqiyotga bog'liqligi.

Jamiyat falsafasi va taraqqiyotning o'zbek modelini o'rganishning ahamiyati. Yosh avlodga ijtimoiy-falsafiy bilimlarni shakllantirish va taraqqiyotimizning tamoyillari to'g'risida ilmiy xulosalar xosil qilish zarurati.

Mustaqili ta'lim shakli: kichik guruhlarda ishlash

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008
2. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch qudratiga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. -T.: O'zbekiston, 2007
3. Falsafa asoslari. T.: Fan, 2005. O'quv qo'llanma. (Hammualliflar jamoasi)

MAVZU: XX ASRDAGI ILMIIY-TEXNIK INKILOB VA UMUMBASHARIY XAVFLAR XAMDA UMUMINSONIY MUAMMOLAR

(4 SOAT)

Tayanch iboralar: Global muammolar falsafasi: Insoniyat istiqbolini belgilovchi eng ustuvor yo'nlashi, jarayon va muammolar. Jahon taraqqiyotining yaqin va uzoq kelajagini ilmiy bashorat qilish imkoniyatlari. Ilmiy bashorat qilish usullari. Ilmiy gipoteza va taxminlar, ularning ahamiyati. I.Karimov tomonidan asoslangan «O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat» g'oyasi ilmiy bashorat namunasi. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi davr va uning o'ziga xos xususiyatlari. Xalqaro integrasiya jarayonlari va universal texnologiyalar. Umumbashariy muammolar, ularning asosiy yo'nalish va namoyon bo'lish xususiyatlari. Umumbashariy muammolarni hal qilish yo'llari va imkoniyatlari.

Jahon va O'zbekiston XXI asrda: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. XXI asr boshlarida O'zbekiston taraqqiyotining asosiy yo'nalish va xususiyatlari.

Mustaqili ta'lim shakli: Yozma uy ishi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008
2. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. -T.: 2008
3. Axmedova M. "Falsafa" o'quv qo'llanmasi. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006

MAVZU: OILA, FUQAROLIK JAMIYATI VA DAVLATNING AXLOQIY ASOSLARI

(2 SOAT)

Tayanch iboralar: Oilani fuqarolik jamiyatining eng muhim bo'g'ni. Oila uch jihatni: o'zining bevosita ko'rinishi bo'lmish

nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxo'rlikni; bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi.

Oila, davlat, jamiyat rivoji va do'stlik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, poklik, kattalarga hurmat, bag'rikenglik, ma'rifatparvarlik tushunchalari va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liqligi.

Mustaqili ta'lim shakli: axborotlarni yig'ish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent 2008.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008
3. Oila Kodeksi. Toshkent, 2003.

MAVZU: AXLOQIY TAMOYILLAR VA ME'YORLAR (2 SOAT)

Tayanch iboralar: Milliy mustaqillikni mustahkamlash jarayonida axloqshunoslikning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni. Vatanparvar, millatparvar insonparvar, halol shaxsni - zamonaviy insonni voyaga yetkazish va XXI asrda umumjahon miqyosida etosferani yaratishga xizmat qilish axloqshunoslik fanining eng dolzarb vazifalari. Asosiy mezoniy tushunchalar-kategoriyalar singari axloqiy tomoyillar ham axloqiy anglash shakllaridan hisoblanadi.

Mustaqili ta'lim shakli: o'rgatish orqali o'rganish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008
2. Sher A. Axloqshunoslik. -T.: 2000
3. Komilov N. Komil inson-millat kelajagi. -T.: 2001

MAVZU: YANGI DAVR ESTETIK QARASHLARI (2 SOAT)

Tayanch iboralar: Estitika falsafiy fandır. Falsafa – mutafakkur gulshani, ma’naviyat bog’i. Falsafa fani – haq yo’liga o’rgatuvchi ta’limot, dunyoqarashni shakllantiruvchi, olam va odamni bilish tizimidir. Ma’rifatchilik estetikasi, Antoni Eshler, Edmond Biyork, David Yun, Volter, Sharl Lui Monteskye, Jan Jak Russo, Volfgang Gyote, Aleksandr Sergiyvich Pushkin, N.V.Gogol, Lev Nikolayevich Tolstoy estitikaga oid qarashlari, Turkiston ma’rifatparvarlari estetik qarashlari.

Mustaqili ta’lim shakli: munozara

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch . -T.: Ma’naviyat. 2008

2. Нитцше Ф. Искусство и художник. // Сочинения. 2-х томах, Т-1.

3. Sher A. Tasavvuf, G’azzoliy va go’zallik falsafasi. «Sog’lom avlod uchun» j. 2002, 2-son.

MAVZU: SAN’AT TURLARI VA ULARNING O’ZARO ALOQADORLIGI (2 SOAT)

Tayanch iboralar: Estitika fani – go’zallik san’atning zarur sharti ekanligini, go’zalliksiz san’atning yo’qligi va bo’lishi mumkin emasligini uqtiradi. San’atda mazmun va shaklni bir – biridan ajratib bo’lmaydi. San’atning o’ziga xos xususiyati uning voqelikni ilg’or g’oyaviy nuqtai nazardan turib badiy obrazlarda aks ettirishdir. San’atning badiy shakli til, uslub, obraz kabilar bo’lib, ular mazmuni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Mustaqili ta’lim shakli: Vizual taqdimot

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008

2.Sher A. Tasavvuf, G'azzoliy va go'zallik falsafasi. «Sog'lom avlod uchun» j. 2002, 2-son.

MAVZU: MANTIQ ILMINING NAZARIY AHAMIYATI (4 SOAT)

Tayanch iboralar: Tafakkurning asosiy belgilari: fikrning aniq ma'noga ega bo'lishi, izchil va ziddiyatsiz qurilishi, asosligi. Tafakkur qonunlarining to'g'ri fikr yuritish uchun ahamiyati. Ayniyat qonuni. Nozidlik qonuni. Uchinchisi mustasno qonuni. Yetarli asos qonuni. Tafakkur qonunlarining o'zaro aloqasi. Tafakkur qonunlariga rioya qilish-bilishda haqiqatga erishish sharti.

Formal mantiqning asosiy qonunlari. (tamoyillari)

Mustaqili ta'lim shakli: To'g'ri bahs yuritish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuxamedova N. Bilish falsafasi. -T.: 2008
2. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. -T.: O'qituvchi, 1993
3. Raximov I. Logikadan amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar. – T.: O'qituvchi, 1988

MAVZU: TIL VA TAFAKKUR (4 SOAT)

Tayanch iboralar: Til-axborot belgilari tizimi sifatida. Tilning funksiyalari. Tabiiy va sun'iy tillar. Tilni mantiqiy tahlil qilish tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganish vositasi sifatida. Belgi tushunchasi. Tilning semantik kategoriyalari. Fikrlarni formallashtirish tushunchasi. Mulohazalar mantig' tili. Predikatlar mantig' til.

Mustaqili ta'lim shakli: Tanqidiy fikrlash

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Shermuxamedova N. Bilish falsafasi. -T.: 2008.
2. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. -T.: Oqituvchi, 1993.
- 3.Raximov I. Logikadan amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar. -T.: O'qituvchi, 1988.

MAVZU: TO'G'RI FIKRLASHNING QONUN- QOIDALARI (4 SOAT)

Tayanch iboralar: Qonun deganda, avvvlo, ob'ektiv reallikning muhim tomoni haqida gap boradi. Shu ma'noda obyektiv tabiat, jamiyat qonunlarining ifodasini iborat bo'lgan turli fanlarning qonunlari mazmunini yuridik qonunlardan farq etmoq zarur. Qamrab olgan narsa va hodisalarning miqdori va hajmiga qarab qonunlar eng umumiy, umumiy va xususiy qonunlardan tashkil topadi. Moddiy olamning harakatiga xos bo'lgan va odamdagi barcha narsa, hodisalar munosabatida ifodalanuvchi qonunlar bu eng umumiy qonunlardir. Qonunlarni bilish va fan. Inson o'z faoliyatida tabiat qonunlari va jamiyat qonunlarini bilishga, o'rganishga harakat qiladi. Bu obyektiv qonunlarini bilish inson hayoti uchun juda katta ahamiyatga ega. Chunki inson ularni bilib, o'rganibgina o'z maqsadlari yo'lida foydalanishi va uning zararli natijalarining oldini olishi mumkin.

Mustaqili ta'lim shakli: Amaliy mantiqiy tafakkurning muammolari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuxamedova N. Bilish falsafasi. -T.: 2008
2. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. -T.: O'qituvchi, 1993
3. Raximov I. Logikadan amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar. – T.: O'qituvchi, 1988

MAVZU: TAFAKKURNING UNIVERSAL MANTIQUIY SHAKLLARI (4 SOAT)

Tayanch iboralar: Tushuncha tafakkur shakli sifatida. Predmetning xossalari, munosabatlari predmet belgilari sifatida. Predmetlarning umumiy va individual, muhim va nomuhim belgilari. Hukm tafakkur shakli sifatida. Hukmning tarkibi va asosiy xususiyatlari. Hukm va gap. Oddiy va murakkab hukmlar. Oddiy hukm tarkibi. Oddiy hukmlarning predikat mazmuni, miqdori, sifati bo'yicha turlari. Ayiruvchi va istisno etuvchi hukmlar. Hukmlardagi

terminlar hajmini aniqlash. Murakkab hukm, uning turlari. Murakkab hukmlarni hosil qiluvchi mantiqiy bog'lamalar. Biriktiruvchi hukmlar. Ayiruvchi hukmlar. Shartli hukmlar. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi. Xulosa chiqarishning tuzilishlari: asoslar, xulosa, asoslardan xulosaga mantiqan o'tish. Mantiqan kelib chiqish tushunchasi. Mantiqan zaruriy va ehtimoliy xulosa chiqarishlar. Xulosa chiqarish turlari: deduktiv xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish, analogiya.

Mustaqili ta'lim shakli: Savol javob

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuxamedova N. Bilish falsafasi. -T.: 2008
2. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. -T.: Oqituvchi, 1993.
3. Raximov I. Logikadan amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar. - T.: O'qituvchi, 1988

MAVZU: MUAMMO. FARAZ. NAZARIYA (2 SOAT)

Tayanch iboralar: Muammo bu obyektiv reallikni bilish, ilmiy o'rganish jarayonida kelib chiqadigan masala yoki masalalar yig'indisidan iborat bo'lib, ularni o'rganish, tadqiq etish ma'lum nazariy yoki amaliy ahamiyat kasb etadi. Bilimning rivoji bu bir xil problemaning, muammo-masalaning hal etilishi, o'rganilishi va ikkinchi xil problemlarning vujudga kelishi jarayonidan iboradir. Nazariy bu keng ma'noda obyektiv hodisalarni tushuntirish va talqin etishga qaratilgan fikr, tasavvur, bilimlarning sistemali bir butun ifodasi. Aniqroq aytganda nazariya-bu obyektiv jarayonning mohiyati, qonuniyatlari haqida bir butun tasavvur beruvchi ilmiy bilimlarning oliy darajada sistemalashtirilgan va umumlashtirilgan shaklidir.

Mustaqili ta'lim shakli: Muammo hosil qilish va yechimini topish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuxamedova N. Bilish falsafasi. -T.: 2008
2. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. -T.: Oqituvchi, 1993.
3. Raximov I. Logikadan amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar. - T.: O'qituvchi, 1988

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

1. Munozara- munozara olib boruvchi - boshlovchi (o'qituvchi, jurnalist, boshliq va boshq...) mavzuni tanlab, ishtirokchilarni taklif etadi. Boshlovchi ishtirokchilarga “ aqliy hujum” topshirig'i qoidalarini tushuntiradi: Boshlovchi kotib tayinlaydi va aytilgan barcha g'oyalarni yozib boradi. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri “charxlanishi” uchun qisqacha tanaffus e'lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. Ishtirokchilar guruhlarga bo'linib, birinchi bosqichda bildirilgan g'oyalar mustahkamlanadi. G'oyalar guruh bo'yicha birlashtirilib, ular tahlil qilinadi, natijada o'rta qo'yilgan muammoning echimiga oid bo'lgan fikrlargina ajratib olinadi.

Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

2. Referat - O'rta shakldagi ilmiy mustaqil yozma ish hisoblanib, bir necha turga ajratiladi:

- A) Reproduktiv referat - mavzuning bayonidan iborat
- B) Produktiv referat - mavzu bo'yicha mustaqil fikr
- C) Referat- Konspekt – turli manbalar- ko'rgazma materiallari v.b jamlanmasi hisoblanadi
- D) Referat rezyume- mavzuning asosiy mazmunidan iborat
- E) Referat doklad - mavzuning umumiy mohiyatini tushuntirish

3. T-sxema - bunda ikki qismdan iborat jadval tuzilib, bir tomonda fikr, ikkinchi tomonda ushbu fikr izohi beriladi (1- chizma) Bunda ikki va undan ortiq fikrlarni tahlil qilib izohlash tavsiya etiladi.

Fikr	Izoh
Men fikr qilayapman, demak men mavjudman (R.Dekart)	Bu fikrda inson borlig'i, mavjudligi, o'zini anglashi, aql zakovat, dunyoqarashi masalalari tushunish mumkin.

4. Intervyu darsi- mazmuniga ko'ra ikkiga bo'linadi:

A) so'rov shaklidagi intervyu- bunda har bir kichik guruhdan boshlovchi tayinlanib u tanlangan mavzu yuzasidan so'rov o'tkazadi va dars oxirida so'rov natijalari e'lon qilinadi. (2- chizma) (talabalar soniga ko'ra 2 va undan ortiq guruhlariga ajratish mumkin)

Savol	Birinchi guruh natijalari		Ikkinchi guruh natijalari	
	Ha	Yo'q	Ha	Yo'q
Olamni bilish mumkinmi?	42%	58%	60%	40%
Inson komillikka erishishi mumkinmi?	56%	44%	49%	51%

B) reportaj shaklidagi intervyu- har bir kichik guruhlariga asosiy mavzudan uchta va undan ortiq savollar tuzilib ularning fikrlari jamlanadi.(3-chizma)

Savol	Birinchi guruh fikri	Ikkinchi guruh fikri
Zardushtiylik dininig asosiy tamoyili	Ezgulik va yovuzlik qarama-qarshiligi	Tabiat va axloqiy qarashlar ustuvorligi

5.Tanqidiy fikrlash -munozarali savollarni tahlil qilish va xolisona fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun metodlar mavjud. Mavjud voqelikni tanqidiy fikrlash asosida baholash quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin: talabaning o'z fikrini erkin ifodalashi; o'z fikrini oydinlashtirish; talabalar fikrlarini

asoslanganligini tekshirish; o'zgaralar fikrini o'rgatish; o'z va o'zgaralar fikrini tahlil qilish va so'ngi bosqichi muammo natijasini qabul qilish.

6. Axborotlarni yoyish - bu usulning asosiy vazifasi o'rganilayotgan o'bekt – talabalar faoliyatini pedagogik voqelikni qismimga ajratgan holda o'zlashtirishga yo'naltiriladi, unda ko'p variantlilik asosida tushuncha va hodisalarning o'zaro ichki va tashqi bog'lanishlarini aniqlash ko'nikmalarini shakillantiradi, mavzu bo'yicha fikr-mulohazalarini erkinlashtirishga yordam beradi. Axborotlarni yoyish usulidan foydalanish uchun talabalarni kichik guruhlariga (3-5 ta) ajratish talab etiladi. Har bir guruhda mavzuga oid alohida o'quv elementlari tanlanadi. Buning uchun auditoriyada darslik, o'quv qo'llanmari, ma'ruza matnlari va boshqa axborot manbalari bo'lishi lozim. O'qituvchi alohida o'quv elementlarini o'zlashtirishi uchun 15-20 daqiqa vaqt ajratadi.

7. Aqliy hujum- bu bosqichda hech kimning o'zgaralar g'oyasiga "hujum" qilishi yoki baholashiga haqqi yo'q. Demak, "aqliy hujumda" qisqa vaqtda o'nlab g'oyalarning yuzaga chiqishi imkoniyatlari mavjud bo'ladi. "Aqliy hujum" qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin;

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid qilinmaydi;
- ish sifatga emas, songa qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyani mumkin qadar mukammallashtirish va rivojlantirish mumkin;
- muammo echimidan g'oyalar qo'llab-quvvatlanadi;
- barcha g'oyalarning asosiy mavzulari (farazlari) yozib olinadi;
- "hujum" vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutiladi.

8. Vizual taqdimot- mavzu bo'yicha multimedia va boshqa elektron vositalari (hujjatli film, CD hajmidagi taqdimotlar) qo'llanilib bunda 5-7 daqiqali reglament ajratiladi. Mavzuning mazmun mohiyati interfaol uslubda yoritilishi talab qilinadi.

9. Savol javob- savol javob turlari juda ham ko'p bo'lib mustaqil ta'lim uchun asosan quidagilarni tavsiya etish mumkin:

A) Talabalar bilim darajasini oshirish maqsadida o'tilgan mavzu yuzasidan amaliyot bilan bog'liq savol berish.

B) Mavzuni qanday o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida talabalarga 3-5 mavzu yuzasidan savollar tuzish talab etiladi va shu savollarga dars davomida javob beriladi. Eng mantiqiy, hayotiy, dolzarb savol va javob rag'batlantiriladi.

10.Manbalar bilan ishlash - talabalarning zaruriy axborotni izlashlari, nazariy bilimlarni mustahkamlashlari hamda nazariy materiallarni chuqur anglashlari uchun bu metoddan foydalanish yaxshi samara beradi. Auditoriya 4-5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi. Guruh bir xil yoki turli mavzudagi topshiriq hamda gazeta, jurnal, fotoal'bom va byulletenlar olishadi.

11.Esse- kichik shakldagi yozma ish turi bo'lib, bunda talabanning mavzu bo'yicha tushunchasi bayon etiladi. Birinchidan dars davomida talaba 3 min. ichida mavzu bo'yicha o'z tushunchasini bildiradi, so'ngra ushbu mavzu bo'yicha mustaqil esse yozish uyga vazifa sifatida beriladi. Keyingi darsda ushbu esselar qiyosiy tahlil qilinadi.

12. Kichik guruhlarda ishlash - talabanning faolligini oshiradi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan o'rganish imkoni tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi. Qo'llash usuli: Faoliyatni tanlash; zaruriy asos yaratish; guruhni shakllantirish; aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish; qo'llab-quvvatlash va yo'naltirish; muhokama qilish va baholash.

13. Yozma uy ishi- talabalardan shunchaki mavzu bayoni emas, balki ijodiy yondoshuv talab etiladi. Keltiriladigan fikrlar ko'proq hayot va amaliyotga bogliqligi talab etiladi. (misol uchun tasvirlash, chizish, yasash, she'r yozish, musiqa bilan hamohang so'zlab berish)

14.Axborotlarni yig'ish – birinchi qatorda mavzuga oid bosh goya (tayanch tushuncha) bir so'z (ot bilan) qayd etiladi. Ikkinchi qatorda bosh goya ikki sifat bilan ifodalanadi. Uchunchi qatorda mavzuga oid tushunchalar (jarayonlar) uchta so' bilan bayon qilinadi. To'rtinchi qatorda mavzuga oid fikr (nazariya, fakt)lar to'rtta so'zdan iborat bo'lishi lozim. So'ngi qatorga mavzu

mohiyatini oydinlashtiriladigan (yoki ma'no jihatdan yaqin bo'lgan) bitta so'z yoziladi.

----- 1 so'z (ot)
----- 2 ta so'z (sifat)
-----, -----, ----- 3 ta so'z (fe'l)
----- nazariya
----- 1 yoki ma'nodosh so'z

15. O'rgatish orqali o'rganish- talabalar o'qituvchi yordamida darsning bir qismini boshlovchi sifatida o'tkazadi, bu usul talabalarning ma'suliyatini oshirish, qiziqarli manbalarni izlab topishiga undaydi.

16.To'g'ri bahs yuritish - o'qituvchi va bahs ishtirokchilari auditoriyadan joy olishadi, qulay bo'lishi uchun fikrni qo'llab-quvvatlovchilar o'qituvchining o'ng tomoniga, qarshilar chap tomonida o'tirishadi. O'qituvchi muhokama mavzuini va bahs variantlarini bayon qiladi, so'zga chiquvchilar uchun vaqt belgilaydi.


18.Amaliy mantiqiy tafakkurning muammolari - talabalarga mustaqil ishlash uchun oldindan tayyorlangan mantiqiy muammo va mashqlar beriladi. Talabalardan bu mashqlarni yechishda turli mantiqiy usul va metodlardan foydalanish tavsiya etiladi (induktiv, deduktiv usullar, murakkab hukm chiqarish v.b)

19.Muammo hosil qilish va yechim topish - auditoriya 2 va undan ortiq guruhga bo'linadi, bir guruh ekspertlar boshqalari notiqlar guruhi deyiladi. Ekspertlar guruhi hayotiy muammo ko'rsatib beradi, ushbu muammo yechimi notiqlar guruhlari muhokamasida o'z yechimini topadi va dars oxirida xulosa qilinadi.


20. Ajurli arra - metodi tuzilish jihatdan quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1. Topshiriqlarni bo'lish; 2. Birlamchi guruhlar: guruh a'zolari mavzuni olgach, ekspert hisoblanadi; 3. Ekspertlar guruhlari; 4. Birlamchi guruhlar, yani talabalar o'z birlamchi guruhlari ga qaytadilar va ekspert guruhlarda o'rganganlarini o'qitishadi.

21. Venna diagrammasi (eyler doiralari)- ikki va undan ortiq mavzu doirasidagi fikrlarning bir- biriga munosabatini bildiradi Shunga kora ushbu diagramma bir necha ko'rinishlarga ega:

a) fikrlar umumiyliigi va o'ziga xosligi



b) fikrlarning asosiy mavzuga aloqadorligi



22. Muammoli ma'ruza - bu muammoli vaziyatlar vujudga keltirish, muammoni ma'lum bir tartibga solish, mammoni yechishda talabalarga yordam berish yechimlarni tahlil qilish va tizimlashtirishdir. Bu metod mustaqil fikrni rivojlantiruvchi hisoblanib, ijodiy yondoshish, bilim ko'nikmalari talab qilinadi hamda itelektual salohiyatini oshirishga yordam beradi. Boshlovchi tomonidan o'rtaga muammo tashlanib barcha talabalar ushbu muammoga mustaqil fikr bildiradi, bu ularning kelajakda soha mutaxassisi bo'lishi bilan birgalikda tafakkur jarayoni va ijodiyligini oshiradi.

23. Ekskursiya mashg'uloti- talabalarni mavzu doirasida madaniy meros obyektlari, qadamjolar, muzeylar, san'at galereyalari, tabiat qo'yniga tashrifi orqali ular dunyoqarashini oshirish,

nazariyani amaliyot bilan bog'lash, tajriba orqali ularda hayotiy ko'nikma shakllantirish.

24. Ko'rgazmali vositalar tayyorlash- mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Ushbu metod muayyan mavzuni o'zlashtirish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: "O'zbekiston". 2008*
2. *Karimov I.A " Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz". - T.: "O'zbekiston", 2000.*
3. *Karimov I.A. Yevropa Atlantika hamkorlik kengashi sammitida so'zlangan nutq.// Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-t. -T.: O'zbekiston, 2003.*
4. *Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. // Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-t. -T.: O'zbekiston, 2003.*
5. *Karimov I.A Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. – T.: "O'zbekiston", 2008*
6. *O'zbekiston Milly Entsiklopediyasi. 1-14 jildlar*
7. *Ziyonet. uz masofadan o'qitish ta'lim tarbiyaning zamonaviy usullari sayti. 2010.*
8. *Mavlonov R., To'rayeva O', Xoliqberdiyev K. Pedagogika. (Kasb-hunar kollejlari uchun) o'quv qo'llanma. 2008 .*
9. *Ma'naviyat yulduzlari. -T.: A.Qodiriy nashryoti, 1999 .*
10. *Falsafa. (O'quv qo'llanma). -T.: Fan, 2002 y.*
11. *Falsafa tarixi. –T.: Sharq, 2002.*

12. *Axmedova M. "Falsafa" o'quv qo'llanmasi. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006*
13. *Основы философии. (учебное пособие для студентов), -T.: Узбекистан, 1998*
14. *Mustaqillik. Izohli ilmiy- ommabop lug'at. -T.: Sharq, 2000.*

D. Amridinova
FALSAFA
fanidan mustaqil ta'lim va
zamonaviy pedagogik texnologiyalar
(Uslubiy qo'llanma)

Muharrir: A.Eshqobilov
Tex. Muharrir: Q.Berdiyev
Kompyuterda sahifalovchi: I.Bilyalov

Bosishga ruxsat etildi 04.05.2010. Qog'oz bichimi A4. Ofset qog'ozi.
"Times" garniturası. Hajmi 1,75 b/t. Buyurtma № 57. Adadi 100 nusxa.

Samarqand Dalat chet tillar institute nashr-matbaa markazida chop etildi.
Manzil: Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93.

